

FUQAROLIK FAZILATLARI



Har bir inson xushmuomalalik, kirishimlilik, tirishqoqlik, jasorat va boshqa ko‘plab fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Ijobiy fazilatlar bizga har bir ishda muvaffaqiyat qozonib, mazmunli hayot kechirishimizda yordam beradi.

Bundan tashqari, **fuqarolik fazilatlari** ham bor bo‘lib, ular nafaqat bir inson, balki butun jamiyat va mamlakatning farovon hayoti uchun ham zarur. Halollik, o‘zgalarga hamda qonun va tartibga bo‘lgan hurmat, adolatparvarlik, o‘zaro birdamlik, ya’ni insonlarning bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashga intilishi hamda vatanparvarlik eng oliy fuqarolik fazilatlaridir.



Fuqarolik fazilatlarimizni ifoda etish orqali mamlakatimizning gullab-yashnashi – ravnaq topishiga o‘z hissamizni qo‘shamiz.



1. “Ravnaq topish” iborasini qanday tushunasiz?
2. Mamlakat rivojiga hissa qo‘shish uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lishimiz kerak?
3. Siz ham o‘zingizni shunday fazilatlar egasiman, deya olasizmi? Yana qaysi fazilatlarni o‘zingizda shakllantirishni xohlaysiz?



Birdamlik

Hurmat



Ajoyib kunlarning birida velosipedda maza qilib ketayotgan edim. Birdan yo‘lda Jamshidni ko‘rib qoldim. U nima qilishini bilmay, velosipedi yonida hayron bo‘lib turardi. Bilsam, velosipedining g‘ildiragi buzilib, yiqilib tushgan ekan. Aslida, Jamshid bilan ko‘p gaplashmayman, uquvsizroq bo‘lgani uchun bolalar bilan birga kam o‘ynaydi. Lekin u – a‘lochi. Shuning uchun men u bizning davramizni pisand qilmaydi, deb o‘ylardim. Men uzoqdagi bog‘ga shoshayotgan bo‘lsam ham, negadir to‘xtab, unga yordam bergim keldi. Ikkalamiz ancha urinib, bir amallab, velosipedini tuzatdik. Keyin birga gaplashib ketdik. Xayrlashayotib, ertasi kuni ham velosiped uchishga kelishib oldik.



Do‘stlashib olganimizdan so‘ng Jamshid har kuni hovliga chiqib, biz bilan birga o‘ynaydigan bo‘ldi. Ikki haftadan keyin matematikadan murakkab masalani qanday yechishni menga osongina tushuntirib qo‘ydi. Masala unchalik qiyin emas, aksincha juda qiziqarli ekan.



1. Sizningcha, Jamshidga kutilmagan yordam taklif qilinganda u nimani his qildi?
2. Velosipedni tuzatishgach, bolalar o‘zlarini qanday his qilishdi?
3. Bu voqea qanday yaxshilikka sabab bo‘ldi?



Insonlar ko‘pincha bir-biriga beg‘araz yordam berishadi. Garchi ular bunga majbur bo‘lmasalar-da, shunchaki g‘amxo‘rlik qilish uchun yordam berishadi. Kimdir qiyin ahvolga tushib qolganining guvohi bo‘lsak, ko‘pincha unga yordam berish uchun vaqtimizni ham, kuchimizni ham ayamaymiz, evaziga esa undan hech narsa kutmaymiz. Bunday o‘zaro yordam jamiyat hayotining gullab-yashnashiga, unda insonlar o‘zini baxtli va kerakli his qilishiga sabab bo‘ladi. Aksincha, insonlar bir-birini qo‘llab-quvvatlamasa, o‘zaro ahil va birdam bo‘lmasa, jamiyatda o‘sish va rivojlanish bo‘lmaydi, tarqoqlik hamda kelishmovchiliklar kelib chiqadi.



Mavzuni so‘zlab berishga tayyorlaning.

